

## Tarix

1. Zardushtiylik xudolarining yo'nalishlari xato berilgan qatorni toping  
A) Mitra- Quyosh va yorug'lik xudosi  
B) Ahriman – yovuzlik va o'lim xudosi  
C) Anaxita – Hosildorlik va suv ilohasi  
D) Axuramazda – ulug' podsholar xudosi
2. Qang` davlatiga kimlar asos solgan?  
A) saklar B) so`g`dlar  
C) baqtriylar D) massagetlar
3. Turklar eftallar davlati yerlariga qachon bostirib kiradilar?  
A) 556-yil B) 563-yil  
C) 567-yil D) 576-yil
4. “Qonuni Ma’sudiy” asarini kim yozgan?  
A) Beruniy B) Bayhaqiy  
C) Firdavsiy D) Ibn Sino
5. Benefitsiy nima?  
A) Harbiy xizmat evaziga in'om etilgan yer-mulk  
B) Meros qoldirish mumkin bo'lmagan yer-mulk  
C) Meros qoldirish mumkin bo'lgan yer-mulk  
D) Qirol oilasi vakillariga tegishli yer-mulk
6. Qadimgi Chosonning bo'linib ketgan uch qirolligi ichida qaysi biri zaif va kam taraqqiy etgan?  
A) Silla B) Koryo C) Koguryo D) Pekche
7. Sherdor madrasasi qaysi Buxoro xoni davrida qurilgan?  
A) Nodir Muhammad, B) Imomqulixon  
C) Abdulazizxon, D) Subhonqulixon
8. Xorazmni Buxoroga bo'ysundirgan hukmdorlarni toping. 1.Ko`chkinchixon  
2.Ubaydulloxon 3.Imomqulixon  
4.Subhonqulixon 5.Abdullaxon II  
6.Nasrullo  
A) 2,4,5 B) 2,3,5 C) 1,2,3,6 D) 2,3,4,5
9. “Girdob” asarining muallifi kim?  
A) Luiji Kapuana B) Frenk Norris  
C) Emil Zolya D) Stiven Kreyn
10. Qanotning ko'tarish kuchini aniqlash formulasini kim ixtiro qildi?  
A) Beltrami B) Gilbert  
C) Jukovskiy D) Sklodovskaya
11. Ural kazaklari nechinchi yilgi armiya nizomiga bo'ysunmaganligi ucun surgun qilingan?  
A) 1875-yil B) 1878-yil  
C) 1876-yil D) 1877-yil
12. Yosh buxoroliklar va bolsheviklar tashabbusi bilan 1920-yil 29-avgustda qayerda qo'zg'olon tashkil qilingan?  
A) Karki B) Kalif C) Chorjo'y D) Ko'lob
13. Buyuk geografik kashfiyotlarning tashabbuskorlari bo'lgan ..... dengiz sayyohlari?  
1.Ispaniya 2.Italiya 3.Frantsiya  
4.Portugaliya 5.Angliya  
A) 1,2 B) 1,2,5 C) 1,4 D) 3,4
14. Fransiyada 1-respublika e'lon qilingan yilda Xitoy tarixida?  
A) Jung'oriya bosib olindi  
B) Nepal bosib olindi  
C) Guanchjou chet elliklar uchun ochib qo'yildi  
D) Koreya bosib olindi
15. 1847-yil Yevropa davlatlarida iqtisodiy inqiroz yuz bergandi. Shunday vaziyatda burjuaziya hukumat oldiga islohot o'tkazish talabini qo'ygan, uning asosini...  
A) Davlat tomonidan mablag' ajratish  
B) Saylov huquqini kengaytirish  
C) Ish haqini oshirish  
D) Mehnat huquqini kafolatlovchi qonun qabul qilish